

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3588-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3588-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3588-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining 1-ilovaga muvofiq ro'yxat bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat mulki bo'lgan va davlat ulushi mavjud xo'jalik yurituvchi jamiyatlarning foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va ob'ektlari negizida kichik sanoat zonalarini (keyingi o'rinlarda KSZ deb ataladi) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

b) O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi manfaatdor davlat va xo'jalik boshkaruvi organlari bilan birgalikda foydalanilmayotgan tegishli ishlab chiqarish maydonlari va davlat mulki ob'ektlarini bir oy muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga belgilangan tartibda o'tkazilishini ta'minlash, shuningdek, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va ob'ektlarni byudjet hamda byudjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi soliq bo'yicha qarzlarni beriladigan aktivlarning qoldiq (balans) qiymati summasiga kamaytirish hisobidan mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga berish masalasini davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining boshqaruv organlari majlislarida ko'rib chiqilishi topshirilganligi;

v) KSZ hududidagi davlat ko'chmas mulki tadbirkorlik sub'ektlariga biznes rejalarini bajarish, ish o'rinlarini yaratish va saqlash, barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lash sharti bilan keyinchalik mulk huquqi berilgan holda 5 yillik uzoq muddatga ijaraga berilishi;

KSZ hududidagi ko'chmas davlat mulkidan ijara davrida foydalanish uchun ijara to'lovining "nol" stavkasi belgilanganligi;

KSZ ishtirokchilariga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun er uchastkalari ajratib berish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 25 oktyabrdagi PQ-3356-son qarori bilan tashkil etilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini ma'muriy kengashi tomonidan qabul qilinishi;

g) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida" 2017 yil 18 yanvardagi PQ-2731-son qarorining 4-bandiga muvofiq sanoat sohasida (avtomobillarga gaz to'ldiruvchi kompressor stantsiyalaridan tashqari) yangi tashkil etiladigan mikrofirmalar va kichik korxonalarining;

Mo'ynoq, Shumanay, Qonliko'l, Taxtako'pir, Chimboy tumanlarida - 2027 yilning 1 yanvarigacha;

Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa tumanlarida - 2022 yilning 1 yanvarigacha yagona soliq to'lovini to'lashdan ozod etilganligi;

d) Qoraqalpog'iston Respublikasining Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini ma'muriy kengashiga bir oy muddatda KSZ direktiyasini tashkil etish choralarini ko'rish topshirilganligi;

e) KSZ direktiyasi va ishtirokchilariga 2020 yilning 1 fevraliga qadar ular egallab turgan maydondan kelib chiqqan holda hisoblanadigan er solig'ining belgilangan eng kam - uch baravari miqdoridagi yagona soliq to'lovi bo'yicha qonunchilikda nazarda tutilgan talab tadbiriq etilmasligi;

j) O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga KSZda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish uchun 75 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyalarini tijorat banklari orqali ikki oy muddatda belgilangan tartibda ochish topshirilganligi;

z) O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining kredit liniyalari mablag'lari import uskunalar va ularga butlovchi qismlarni xarid qilish uchun ajratilishi;

kreditlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kreditni qoplash kuniidagi kursi bo'yicha milliy valyutada kreditni qoplash jadvaliga muvofiq amalga oshirilishi belgilanganligi;

i) Qoraqalpog'iston Respublikasi kichik sanoat zonalarida muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini qayta tiklash ishlarining manzilli ruyxati mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini ma'muriy kengashining asoslangan hisob-kitoblari buyicha mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq bo'linish chegarasigacha Qoraqalpog'iston Respublikasi KSZlarining muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini qayta tiklash ishlarini bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan mablag'lar ajratish topshirilganligi;

O`zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xo`jaligi vazirligi, Avtomobil` yo`llari davlat qo`mitasi, "O`ztransgaz" AJ, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga bir oy muddatda mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq Qoraqalpog`iston Respublikasi KSZda muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini qayta tiklash ishlarini amalga oshirish uchun tarmoq jadvallarini tasdiqlash va ularning so`zsis bajarilishini ta`minlash topshirilganligi;

k) Qoraqalpog`iston Respublikasi Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini ma`muriy kengashi belgilangan tartibda O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Investitsiyalar bo`yicha davlat qo`mitasi, Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko`maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo`mitasi, O`zbekiston Savdo-sanoat palatasi va tijorat banklari bilan birgalikda;

Qoraqalpog`iston Respublikasi iqtisodiyotining ehtiyojlari, shuningdek, mavjud mineral-homashyo, qishloq xo`jaligi resurslarini va infratuzilmani inobatga olgan holda Qoraqalpog`iston Respublikasi KSZ hududida import o`rnini bosuvchi va eksportga yunaltirilgan tayyor mahsulotlar, materiallar va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish bo`yicha aniq takliflar - "yo`l xaritalari" ikki oy muddatda ishlab chiqilishini;

Qoraqalpog`iston Respublikasi KSZ hududida o`zlashtirish uchun taklif qilinayotgan import o`rnini bosuvchi va eksportga yo`naltirilgan tayyor mahsulotlar, materiallar va butlovchi buyumlar turlari to`g`risidagi ma`lumotlarning tadbirkorlik sub`ektlariga etkazilishini;

KSZ hududida loyihalarni amalga oshirish uchun tadbirkorlik sub`ektlarini jalb etish, ular bilan tizimli ishlar olib borish, shuningdek, Qoraqalpog`iston Respublikasi KSZ hududida ishlab chiqarishlarni joylashtirish bo`yicha investitsiya buyurtmanomalarini sifatli va o`z vaqtida ko`rib chiqish yuzasidan choralar ko`rilishini;

Qoraqalpog`iston Respublikasi KSZ hududida ishlab chiqarishlarni tashkil etish investitsiya loyihalarining biznes-rejalarini ishlab chiqishda tadbirkorlik sub`ektlariga ko`maklashishni ta`minlash topshirilganligi;

l) Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligi to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga 2018 yil 15 iyul` va 2019 yil 15 yanvarda axborot berish topshirilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2017 yil 28 oktyabrda 733-son Qarorining 3-bandidagi «Nukus farm» so`zi olib tashlansin, «Qoraqalpog`iston Respublikasidagi Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini ma`muriy kengashi tarkibi» (bundan buyon - ma`muriy kengash) deb qabul qilinsin hamda ma`muriy kengash yangilangan tarkibi mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq qayta tasdiqlansin.

4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil

6 martdagi PQ-3588-son qarori talablari ijrosini ta`minlash hamda KSZ ishtirokchilariga ko`maklashish, investitsiyalarni faol jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish bo`yicha ishchi guruh tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi PQ-3588-son qarori 1-ilovasidagi keltirilgan ob`ektlarni topshirish -qabul qilish ishlarini hamda KSZ faoliyatini tashkil etish bo`yicha ishchi komissiyaning namunaviy tarkibi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Ishchi komissiya:

bir kun muddatda KSZ hududidagi davlat mulki bo`lgan va davlat ulushi mavjud xo`jalik yurituvchi jamiyatlarga foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va ob`ektlarni xatlovdan o`tkazsin;

xatlov natijalari bo`yicha Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rnibosari B.Xabibullaev bilan birgalikda 10 kun muddatda topshirish-qabul qilish ishlarini yakunlasin;

7. KSZda amalga oshirilayotgan ishlar haqida Ishchi komissiya tomonidan ma`muriy kengashiga har oy yakuni bilan muntazam ravishda axborot taqdim etilishini ta`minlasin.

8. Loyihalarni moliyalashtirishga ko`maklashish maqsadida KSZlariga quyidagi tijorat banklarini birlashtirish tavsiya etilsin:

Chimboy va Xo`jayli tumanlariga - "Asakabank" (Kitaybekov);

Beruniy va Amudaryo tumanlariga - Milliy bank (Tleumuratov);

Qo`ng`irot va Taxiotosh tumanlariga - "Sanoatqurilishbank" (Mambetov).

9. Ma`muriy kengash 10 kun muddatda Qoraqalpog`iston Respublikasida KSZlarni boshqarish direktiyasini tashkil etish choralarini ko`rsin.

10. Davlat xizmatlari agentligi Qoraqalpog`iston Respublikasi boshqarmasi (Dosanov) o`rnatilgan tartibda 1 hafta muddatda KSZlarni boshqarish yagona direktiyasi Ustavini davlat ro`yxatidan o`tkazilishini ta`minlasin.

11. Qoraqalpog`iston Respublikasi Moliya vazirligi KSZ direktiyalari faoliyatini tashkil etish va saqlash uchun Qoraqalpog`iston Respublikasi mahalliy byudjetidan zarur mablag` ajratilishini ta`minlasin.

12. Qoraqalpog`iston Respublikasi Uy-joy kommunal xo`jaligi vazirligi, Avtomobil` yo`llari hududiy bosh boshqarmasi, "Qoraqalpog`iston gaz" filiali va mazkur qaror ijrosini ta`minlanishiga aloqador tegishli idoralar (tashkilotlar) va muassasalar, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga bir oy muddatda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi PQ-3588-son qarorining 2-ilovasiga muvofiq Qoraqalpog`iston Respublikasi KSZda muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini qayta tiklash ishlarini amalga oshirish uchun tarmoq jadvallarini tasdiqlasin va ularning so`zsis bajarilishini ta`minlasin.

13. Qoraqalpog`iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Investitsiyalar bo`yicha qo`mitasi, Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko`maklashish va raqobatni rivojlantirish qo`mitasi, O`zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog`iston Respublikasi boshqarmasi va tijorat banklari belgilangan tartibda ma`muriy kengash bilan birgalikda;

Qoraqalpog`iston Respublikasi iqtisodiyotining ehtiyojlarini, shuningdek, mavjud mineral-xomashyo, qishloq xo`jaligi resurslarini va infratuzilmani inobatga olgan holda Qoraqalpog`iston Respublikasi KSZ hududida import o`rnini bosuvchi va eksportga yunaltirilgan tayyor mahsulotlar, materiallar va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish bo`yicha aniq takliflar - "yo`l xaritalari" bir oy muddatda ishlab chiqilishini;

Qoraqalpog`iston Respublikasi KSZ hududida o`zlashtirish uchun taklif qilinayotgan import o`rnini bosuvchi va eksportga yo`naltirilgan tayyor mahsulotlar, materiallar va butlovchi buyumlar turlari to`g`risidagi ma`lumotlarning tadbirkorlik sub`ektlariga etkazilishini;

KSZ hududida loyihalarni amalga oshirish uchun tadbirkorlik sub`ektlarini jalb etish, ular bilan tizimli ishlar olib borish, shuningdek, Qoraqalpog`iston Respublikasi KSZ hududida ishlab chiqarishlarni joylashtirish bo`yicha investitsiya buyurtmanomalarini sifatli va o`z vaqtida ko`rib chiqish yuzasidan choralar ko`rilishini;

Qoraqalpog`iston Respublikasi KSZ hududida ishlab chiqarishlarni tashkil etish investitsiya loyihalarining biznes-rejalarini ishlab chiqishda tadbirkorlik sub`ektlariga ko`maklashishni ta`minlasin.

14. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari B.Xabibullaev amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligi to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot taqdim etish uchun 2018 yil 10 iyul` va 2019 yil 10 yanvariga qadar umumlashtirilgan ma`lumotlarni tayyorlasin.

15. Qoraqalpog`iston Respublikasi Davlat soliq boshqarmasi, O`zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog`iston Respublikasi boshqarmasi bilan birgalikda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 martdagi PQ-3588-son qarorining 4-bandida ko`rsatilgan soliq imtiyozlar haqida tadbirkorlik sub`ektlari va aholiga etkazish maqsadida ommaviy axborot vositalarida keng targ`ibot ishlarini olib borish hamda Nukus shahri va tumanlarda seminarlar (taqdimot) tashkil etish topshirilsin.

16. Tegishli vazirlik va idoralar hamda Nukus shahar va tumanlar hokimliklari o`zlarining qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari B.Xabibullaev zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q. Sariev

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma`lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)